

SAMARQAND SANOAT KORXONALARIDA ISHCHILAR MEHNAT SHAROITLARI VA MEHNAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Shotemirova Aziza Usarovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqola 2-jahon urushidan keyingi davrda Samarqand viloyati sanoat korxonlarida ishchi-xodimlarning mehnat sharoitlari, xavfsizlik masalalari kabi masalalar adabiyotlar, davriy matbuot nashrlari va atxiv materiallari asosida yoritilgan. Samarqand viloyati sanoat ishchi-xodimlari urushdan keyingi tiklanish, yangi tarmoqlarni barpo etish va iqtisodiy salohiyatni kengaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaganligi, urbanizatsiya va ijtimoiy harakatchanlikni tezlashtirilganligi, milliy, jinsiy, yosh va malakaviy tarkibning yangilanishi ishchi sinf qiyofasini o'zgartirganligi kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Texnika xavfsizligi kuni", texnika xavfsizligi, shaxsiy gigeena, "Serp va molot", "rejabozlik".

УСЛОВИЯ ТРУДА И ОХРАНА ТРУДА РАБОТНИКОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ САМАРКАНДА

Аннотация: В данной статье на основе литературы, периодических изданий и исследовательских материалов рассматриваются вопросы условий труда и безопасности рабочих промышленных предприятий Самаркандской области в послевоенный период. Рассматриваются такие аспекты, как решающая роль промышленных рабочих Самаркандской области в послевоенном восстановлении, создании новых отраслей промышленности и расширении экономического потенциала, ускорении урбанизации и социальной мобильности, обновлении национального, гендерного, возрастного и квалификационного состава, изменившего облик рабочего класса.

Ключевые слова: «День технической безопасности», техническая безопасность, личная гигиена, «Сerp и молот», «планирование».

WORKING CONDITIONS AND OCCUPATIONAL SAFETY OF WORKERS AT INDUSTRIAL ENTERPRISES IN SAMARKAND

Abstract: This article, based on literature, periodicals, and research materials, examines the working conditions and safety of workers at industrial enterprises in the Samarkand region in the post-war period. It examines aspects such as the decisive role of industrial workers in the Samarkand region in post-war reconstruction, the creation of new industries and the expansion of economic potential, the acceleration of urbanization and social mobility, and the renewal of the national, gender, age, and skill composition, which changed the face of the working class.

Key words: «Technical Safety Day», technical safety, personal hygiene, «Hammer and Sickel», «planning».

Kirish. Ikkinchi jahon urushidan keyin Samarqand viloyatida sanoat tiklanib rivojlandi, biroq ishlab chiqarish o'sishi fonida ishchilarning mehnat sharoitlari va xavfsizligi bilan bog'liq muammolar saqlanib qoldi. Rasmiy manbalar yutuqlarni olqishlagan bo'lsa-da, arxiv hujjatlari va davr matbuoti mehnatni muhofaza qilish hamda texnik xavfsizlik talablari yetarli bajarilmaganini ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar. Urushdan keyin Samarqand viloyatida sanoat korxonalari tiklanib, yangi ishchi kuchi safarbar etildi. Iqtisodiyotni qayta tiklash shanbalik va jamoaviy hasharlar orqali olib borilib, yo'l, ko'priklar, maktab va shifoxonalar qurildi, biroq mehnat shiddati va tezkorlik talabi texnika xavfsizligi, sanitariya hamda sog'liqni muhofaza qilish masalalarini ikkinchi darajaga surdi [11]. Urushdan chiqqan hududda ishchilarning mehnat va turmush sharoitlari og'irligicha qoldi. Mahalliy hokimiyat bu muammolarga e'tibor qaratib, bo'yoq moddalardan foydalanishda ishchilar salomatligini muhofaza qilish uchun gigiyenik me'yorlar hamda korxona va zavodlar xavfsizlik qoidalarini ishlab chiqdi [12]. Masalan, 1946-yil 8-martda Samarqand viloyati mehnatkashlar deputatlari Soveti ijroiya qo'mitasi ishchi-xizmatchilar sharoitini yaxshilashga doir maxsus qaror qabul qildi [1]. Mazkur qaror mehnat intizomini mustahkamlash va ijtimoiy-maishiy xizmatlarni yaxshilashni ko'zlagan bo'lsa-da, urushdan keyingi ilk yillarda ishchilarning yashash sharoitlari juda nochor edi. Bu holat 1947-yil 1-iyul sonidagi viloyat gazetasida Samarqand ishchilar yotoqxonalarini keskin tanqid qilinishi orqali ham aks etdi [2]. Tanqidiy maqolada ishchi yoshlar yotoqxonalarini tartibsizligi, sanitariya holatining yomonligi va maishiy sharoitlar yetishmasligi qayd etilib, bu holat muammo mavjudligidan dalolat berdi.

1950-yillarda Samarqand viloyatida sanoat salohiyati oshib, yangi kichik korxonalar ochildi, biroq arxiv hujjatlariga ko'ra mehnat sharoitlari va xavfsizlik ikkinchi darajada qoldi. 1950-yillarning ikkinchi yarmida o'tkazilgan tekshiruvlar ishchi va xizmatchilar mehnat muhofazasi qoniqarsizligini ko'rsatib, viloyat kasaba uyushmasi Qo'mitasining 6 ta korxonadagi tekshiruvlari qo'pol kamchiliklarni aniqladi va natijalar viloyat gazetasida yoritildi [3]. Ushbu davrda aniqlangan asosiy muammolar quyidagicha edi:

-Ayrim korxonalarda mehnat muhofazasi talablari bajarilmagan. Jumladan, hammom xodimlari rezina etik, kombinezon va fartuk bilan, elektr ta'mirlash ustaxonasida esa elektromontyorlar dielektrik qo'lqop va botinkalar bilan ta'minlanmagani hujjatlarda qayd etilgan.

-Ko'plab sexlarda mehnat xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar va ogohlantiruvchi ko'rsatkichlar o'rnatilmagan bo'lib, tekshiruvlarda "hech bir ishlab chiqarish sexida xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalar yo'qligi" alohida qayd etilgan [5]. Bu esa ishchilar o'rtasida ishlab chiqarish jarayonida jarohatlanish xavfini oshirishi tabiiy.

-Ventilyatsiya va sanitariya sharoitlari qoniqarsiz edi. Bo‘yoq sexida havo tortish va toza havo berish tizimi yo‘qligi sabab zararli bug‘ va hidlar to‘planib, mehnat o‘ta zararli bo‘lgan. Ayrim korxonalarda esa ish joylarini yuvish va tozalash uchun suv ta‘minoti nochor ahvolda qolgan.

-Elektrotexnika xavfsizligi sust edi: ayrim eski korxonalarda elektr jihozlari talablarga mos o‘rnatilmagan, xususan 40 yildan beri faoliyat yuritayotgan zavodda elektr uskunalari yerga ulanmagan bo‘lib, bu kuchlanish ostidagi tarmoqlarda yuqori xavf tug‘dirgani qayd etilgan.

-Mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qitish sust edi: tekshiruv o‘tkazilgan sexlardan birida 90 nafar ishchidan atigi 53 nafari xavfsizlik qoidalari bo‘yicha maxsus o‘qitilgani hisobotda qayd etilgan [6]. Yarimdan ko‘p ishchi umuman o‘qitilmagani, ya‘ni mehnat xavfsizligi qoidalarini bilmasdan ishlayotgani aniqlandi.

-1950-yillarda mehnat sharoitlarini yaxshilashga byudjet va kasaba uyushmalari mablag‘lari ajratilgan bo‘lsa-da, arxivlar tizimli muammolar saqlanganini ko‘rsatadi: Samarqanddagi GPK g‘isht quyish sexida suv ta‘minoti, yuvinish joylari, maxsus kiyimlar va xavfsizlik materiallari joriy etilgan, biroq 1953-yilda viloyat sanoat korxonalari bo‘yicha mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi uchun mablag‘lar rejalarda to‘liq ko‘zda tutilmagani sabab bu yutuqlar alohida sexlar bilan cheklanib qolgan [8]. Demak, rasmiy hisobotlarda ilgari surilgan “katta ishlar” real amaliyotda barqaror va teng qamrovli tizimga aylanmagan.

Biroq ajratilgan pul mablag‘lari amalda to‘liq sarflanmay qolgan hollar bor edi. Masalan, 1958-yilda ayrim sanoat korxonalarida mehnatni muhofaza qilish tadbirlari uchun 50 ming rubl ajratilgan bo‘lsa, shundan bor-yo‘g‘i 3,1 ming rubl (ya‘ni 6%) sarflangan xolos [7]. Bu esa rejada ko‘zda tutilgan ko‘plab xavfsizlik tadbirlari amalga oshmay qolganini anglatadi. Bundan tashqari, 1957-yilning o‘zida viloyat kasaba uyushmalari byudjetidan 12,8 ming rubl evaziga 27 ta tadbir o‘tkazilgani haqida ma‘lumot bor – bu hali muammo yechimining boshlanishi edi, xolos [6].

1958-yil 17-aprelda Moskvada o‘tgan mahalliy sanoat va kommunal xo‘jalik xodimlari kasaba uyushmasi MKning 1-qurultoyida (jami 438 delegat saylanib, 389 nafari qatnashgani qayd etiladi) rasmiy hisobotlar ishlab chiqarish rejalari va ko‘rsatkichlarining oshib bajarilishini urg‘ulagan bo‘lsa-da, joylardagi mehnatni muhofaza qilish muammolari ham ochiq tilga olingan. Xususan, tekshiruv materiallarida trikotaj fabrikasida 1958-yilda xavfsizlik texnikasiga 20 ming rubl ajratilib, 5 oyda atigi 12 ming rubl sarflangani, shu davrda 2 ta baxtsiz hodisa tufayli 18 ish kuni yo‘qotilgani ko‘rsatiladi. Bundan ham xavotirlisi, korxona 40 yildan beri mavjud bo‘lsa-da, elektr jihozlarida yerga ulash sxemasi yo‘qligi hamda ayollar ustun bo‘lgan ishlab chiqarishda tibbiy punkt, gigiyena xonasi, oshxona va kiyinish xonalari kabi eng oddiy sanitariya sharoitlarining ta‘minlanmagani aytiladi [8].

Arxiv hujjatlari yana shuningdek, Samarqand viloyati sanoat korxonalarida mehnatni muhofaza qilish talablari tizimli ravishda buzilganini ko‘rsatadi, ya‘ni ayrim sexlarda ishchilar ovqatni bevosita ishlab chiqarish joyida iste‘mol qilgan, kesish sexida esa xavfsizlik bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari oxirgi marta 1956-yil 9-iyulda o‘tkazilib, keyingi ikki yil davomida xodimlar tayyorgarliksiz ishlagan. Elektr

podstansiyalari tartibsiz holatda bo‘lib, elektromontyorlar malaka guvohnomasisiz faoliyat yuritgan, bo‘yash sexlarida ventilyatsiya yo‘qligi hamda qozonxona va lokomotivchilar uchun maxsus kiyim-kechak berilmagani qayd etiladi. Hatto ayrim rahbarlar tomonidan maxsus kiyim berishni taqiqlovchi buyruqlar chiqarilgani aniqlangan. Mebel fabrikasida mehnatni muhofaza qilish uchun 30 ming rubl ajratilgan bo‘lsa-da, 5 oyda atigi 2 775 rubl sarflanib, qolgan mablag‘larning boshqa ehtiyojlarga yo‘naltirilgani [9] mehnat xavfsizligi masalalari rasmiy rejalarda mavjud bo‘lsa-da, amalda ikkinchi darajaga surilganini tanqidiy baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Bu dalillar sovet “rejabozlik” muhitida yuqori ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda mehnat xavfsizligi va ishchi salomatligi masalalari ikkinchi darajaga surilib qolganini yana bir bor shohidi bo‘lamiz. Mablag‘lar ham totalitar rejim sharoitida o‘z zarur o‘rnida ishlatilmagan, jumladan, 1958-yil xavfsizlik uskunalari uchun 50 ming rubl rejalashtirilgan bo‘lsa-da, amalda atigi 3 100 rubl sarflangan, 90 nafar ishchidan esa bor-yo‘g‘i 53 nafari xavfsizlik bo‘yicha o‘qitilgan.

Ko‘plab sexlarda ko‘rsatmalar o‘rnatilmagan, dush, kiyinish xonasi va oshxona yo‘q, dumaloq arra yerga ulanmagan, tayyorlov sexi va omborxonalar avariya holatida bo‘lsa-da, ishlar to‘xtatilmagan. Masalan, nonvoyxonada 1957-yilda 78 ta baxtsiz hodisa sodir bo‘lib 634 ish kuni yo‘qotilgan, joriy yilning 5 oyida esa 2 ta og‘ir hodisa qayd etilgan [9]. Ayni jihatlar mehnatni muhofaza qilish talablari rasmiy rejalarda mavjud bo‘lsa-da, amalda tizimli nazorat va mas‘uliyat yetishmaganini tanqidiy baholashga asos bo‘ladi.

Arxiv hujjatlaridan ma‘lum bo‘lishicha, 1969-yil noyabr oyidayoq zavod sog‘liqni saqlash bo‘limi yonida shunday xonani jihozlash masalasi ko‘tarilgan, biroq oradan ikki yil o‘tsa ham muammo hal etilmagan. Bu holat korxonalardagi mas‘ullar tomonidan mehnatkashlarning maishiy ehtiyojlariga panja orasidan qaralayotganini ko‘rsatadi. Masalan, ayollarning mehnat sharoitlariga doir bir misol: 1971-yilga kelib ham “Serp va Molot” konserva zavodida ayol ishchilar uchun hattoki oddiy gigiyena xonasi (yuvinish xonasi) mavjud emas edi [11]. Shaharda qurilish ishlari mexanizatsiyalashgani, poydevor chuqurlarini ekskavatorlar qazishi, ko‘plab qurilish maydonlarida bashnya kranlari ishlagani ta’kidlanadi [14]. Bu mehnat sarfini kamaytirgan bo‘lsa-da, tezkor reja bajarish sharoitida texnika xavfsizligi va sifat nazorati masalalari doim ham bir xil darajada ta‘minlangan, degan savol ochiq qoladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ushbu davrda Samarqand viloyati sanoat ishchi-xodimlari urushdan keyingi tiklanish, yangi tarmoqlarni barpo etish va iqtisodiy salohiyatni kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynab, urbanizatsiya va ijtimoiy harakatchanlikni tezlashtirdi. Milliy, jinsiy, yosh va malakaviy tarkibning yangilanishi ishchi sinf qiyofasini o‘zgartirdi. Biroq rasmiy hisobotlarda qayd etilgan “izchil yaxshilanish”ga qaramay, arxiv va matbuot yashash sharoitlari, uy-joy, maoshlarning xarid qobiliyati va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda hududiy hamda tarmoq nomutanosibliklarini, ayniqsa ayollar va yoshlar xavfsizligi hamda sog‘lig‘ining ikkilamchi qolganini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish rejasi ustuvorligi

sharoitida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qarorlari sust ijro etilib, nazorat formal bo'ldi.

Mablag'lar to'liq o'zlashtirilmagani va beparvolik sabab baxtsiz hodisalar, kasbiy kasalliklar hamda xavfli mehnat sharoitlari uzoq muddat saqlanib qoldi. Samarqand ishchilari sovet tizimining passiv ijrochilari emas, balki murakkab sharoitlarda yashab-mehnat qilib, viloyat taraqqiyotini ta'minlagan faol tarixiy subyektlar sifatida namoyon bo'ladi; ularning kundalik mehnati va ijtimoiy tajribasi sovet modernizatsiyasining ziddiyatli mohiyatini ochib beradi. Biroq ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ishchi-xodimlar ijtimoiy-demografik jihatdan shakllanib, son va malaka jihatdan o'sganiga qaramay, sovet boshqaruvining tizimli kamchiliklari sabab mehnati va turmush darajasi to'liq qadrlanmagan; bu tajriba sanoatlashuvda inson omilini mensimaslik uzoq muddatli ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Ленин йўли газетаси.* // Совет хотин-қизларининг шон-шараф ишидир! Фабрика хотин-қизлари – 1946 йил 8 март. – № 49 (4311).
2. *Ленин йўли газетаси.* // Ётоқхона ташландиқ ҳолда – 1947 йил 1 июль. – № 126.
3. *Ленин йўли газетаси.* // Она ва болалар тўғрисида ғамхўрлик – 1954 йил 13 март, шанба. – № 51 (6684).
4. SamVDA, 1327-fondi, opis-1, 78-ish, 29-varaq.
5. SamVDA, 1327-fond, 1-ruxsat, 76-ish, 17-varaq.
6. SamVDA, 1327-fond, 1-ruxsat, 76-ish, 21–22-23-varaq.
7. SamVDA, 1327-fond, 1-ruxsat, 76-ish, 39-varaq.
8. SamVDA, 1327-fondi, opis-1, 78-ish 6-varaq
9. SamVDA, 1327-fondi, opis-1, 78-ish 24-29-varaq
10. SamVDA, 1327-fond, 1-ruxsat, 78-ish, 129-varaq.
11. SamVDA, 1741-fond, 2-ruxsat, 262-ish, 18-varaq.
12. *Toshpo'latov N.* Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy hayoti (1946–1991) // The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2023. – T. 2, № 5. – B. 126–129.
13. *Zhumaeva A. A.* Occupational Health in the Carpet Weaving Industry, Prognosis and Prevention of Work-Related Diseases // Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2023. – Vol. 4, Issue 5 (Sep–Oct). – P. 135–138.
14. *Самарқанд тарихи.* 2 томлик. II том. – Б. 414.